

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



CULTURAL ISSUES IN TEACHING KOREAN

Ugiloy Khujaeva

*Lecturer at the Department of Korean Philology
 Uzbekistan State World Languages University
 Tashkent, Uzbekistan
 E-mail: ugiloy2288@gmail.com*

ABOUT ARTICLE

Key words: address names, cognitive linguistics, speech etiquette, linguoculturology, etiquette units, category of respect, hierarchy.

Received: 26.04.25

Accepted: 28.04.25

Published: 01.05.25

Abstract: It is known that in teaching a foreign language, there are tools that are actively and constantly used to reveal its cultural aspects. These issues may seem simple and insignificant when taken separately, but together, taken as a whole, they acquire significant importance in the culture of a given nation, serve to restore communication, activate it, and maintain speech activity in the norm. This article is devoted to examining the types and stylistic forms of address units, which are such a delicate point of the Korean language and Korean culture.

KOREYS TILINI O'QITISHDA MADANIYAT MASALALARI

Ugiloy Xujaeva

*Koreys filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Toshkent, O'zbekiston
 E-mail: ugiloy2288@gmail.com*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: murojaat nomlari, kognitiv lingvistika, nutq etiketi, lingvokulturologiya, etiket birliklari, hurmat kategoryasi, iyerarxiya.

Annotatsiya. Ma'lumki, chet tilini o'qitishda, uning madaniy aspektlarini ochib berishda faol tarzda doimiy qo'llaniladigan vositalar mavjud. Ushbu masalalar alohida olinganda oddiy va ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin, ammo birgalikda, umumiylidka olinganida o'sha millat madaniyatida muhim ahamiyat kasb etib, kommunikatsiyani tiklash, uni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me'yorida ushlab turish uchun xizmat qiladi. Mazkur maqola koreys tili, koreys madaniyatining ayanan ana shunday nozik nuqtasi bo'lmish murojaat birliklarining turlari, uslubiy shakllarini

КУЛЬТУРНЫЕ ВОПРОСЫ В ПРЕПОДАВАНИИ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА

Угилой Хужаева

Преподаватель кафедры корейской филологии

Узбекского государственного университета мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: ugiloy2288@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: обращения, когнитивная лингвистика, речевой этикет, лингвокультурология, этикетные единицы, категория уважения, иерархия.

Аннотация. Как известно, существуют инструменты, которые активно и последовательно используются при обучении иностранному языку и раскрытии его культурных аспектов. Эти вопросы могут показаться простыми и незначительными, если рассматривать их по отдельности, но в совокупности они становятся важными в культуре данного народа, служа восстановлению коммуникации, ее активизации и поддержанию умеренности речевой активности. Статья посвящена рассмотрению типов и стилистических форм справочных единиц, которые являются особо чувствительным моментом корейского языка и корейской культуры.

Kirish. Murojaat birlklari kundalik xayotimizda, nutq faoliyati - nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa-aratashuvga xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turlicha konnotativ ma’nolarni - semantik «ohanglarni» tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir. [Husanov B., G‘ulomov V. 2009: 48] So‘zlovchi murojaat birlklari (shakllari, ifodalari, nomlari) orqali tinglovchining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi, qaratadi hamda biror narsaga undaydi. Murojaat shakllari tinglovchiga nisbatan yaqinlik, samimiylilik, xurmat-ehtirom, ishonch, mexr-muhabbat, ta’kidlash, ogohlantirish, minnatdorchilik, mamnunlik, erkalash, suyish, norozilik, g‘azab kabi ruxiyat bilan bevosita bog‘lik ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni ifoda etadi. Murojaat birlklari uslubiy vazifasiga ko‘ra muloqot ohangini, aloqa-aratashuvning funktsional jihatini ifodalaydi. Murojaat shakllari muloqotni zaruriy ravishda olib borishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunda murojaat orqali tinglovchining qaysi ijtimoiy guruhga tegishliligi, uning yashash joyi, yoshi, bajarayotgan vazifasi va boshqa omillar yoritiladi.

Murojaat shakllari so‘zlovchining tinglovchiga o‘zaromunosabatini, hurmatini va uning madaniyat darajasini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Murojaat nomlari til egalarining dunyoqarashi, milliy xarakteri, ma’naviyat darajasi, axloq-odobi, zakovati, xususan vogelikka munosabati, nutqiy madaniyatini ko‘rsatib beruvchi vositadir. Bunda tabiiyki til egasining millati va mintaliteti ham ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Milliy xarakter deganda, ma'lum bir ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga muayyan millat sig'ingan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Misol qilib aytganda, so'zlashganda, har xil marosimlardagi xatti-harakatlarda, salomlashganda, xayrashganda, hattoki qarashdagi yuz ifodalarida ham xarakter belgilari namoyon bo'lishi mumkin. Koreyaning bir necha ming yillik tarix, madaniy meros va an'analari hozirgi kungi hayot tarzida ham aks etadi. Bu haqda bir koreys olimi Koreyaning o'zi bir muzemdir, deb aytgan. Koreys xalqi o'ziga xos so'zlashuv xulqi va muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Koreys xalqida o'zbeklar kabi kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga alohida ahamiyat beriladi. Koreys madaniyatining, ayniqsa, rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchli bo'lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasbkori, unvoni va yoshiga ko'ra darajalanish kuzatiladi. [Usmanova Sh., Kalanova D,2012:162] Bu xalq madaniyatida murojaat birliklari etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Koreys tilida murojaat nomlari boshqa millat tillariga qaraganda anchayin kuchli va anchayin e'tiborni talab etadi. Ushbu taddiqot ishimiz orqali koreys xalqining etiket qoidalari kuchli e'tibor berishi va bu orqali milliy o'zligini namoyon etishini ko'rib o'tish bizning pirovard maqsadimizdir.

Koreys xalqi asrlar mobaynida o'ziga xos urf-odat va an'analarni saqlab keladi. Bu mamlakat azal-azaldan murojaat odobi, muloqot xulqi, kattalarni hurmat qilish kabi olivjanob tuyg'ular bilan tarbiyalangan xalq hisoblanadi. Murojaat odobi masalasini milliy xarakter, millatning o'ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an'analarni hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki murojaat birliklari millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Murojaat birlik kategoriyasi koreys mintalitetida qonun-qoida sifatida qo'llanilib, fikrni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutq uchun juda ham zarur bo'lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, koreys xalqining ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida ming marotabalab tasdiqlanib kelgan murojaat birliklari bu millat hayotining har kun, har lahzasida nutqda mazmuniy go'zallik, o'ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda.

Koreya, jumladan sharq mamlakatlarida murojaat madaniyatiga ta'limning alohida bir bo'limi sifatida qaraladi. Murojaat odobi kishini tarbiya ko'rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasi bo'lib u insondan yuqori ahloqiy saviya va estetik bilimdonlikni talab qiladi. Qadimgi sharq donishmandligida «Insonning yuziga boqma, so'ziga boq», degan hikmatli bir haqiqat bor. Zero, til – inson tafakkurining mahsuli hisoblansa, muloqot madaniyat ko'zgusidir. Tarbiya inson fikriy go'zalligini, ichki olamidagi fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala insonlarni bir-biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi xislatdir. Insonning go'zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rmini topa olishida, boshqalarning hurmat ehtiromiga erishishida

muomalaning o‘rni katta. Insonning samimiyati kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so‘zga boyligi, o‘rinli foydalanishi, so‘zlarining ma’nodorligi uning o‘qimishli, bilimdonligini ko‘rsatadi.

Koreys mintalitetida muloqotiga qarab, insonga baho beriladi. So‘zi orqali uning tafakkuri, fikri anglashilsa, murojaati orqali kishining odobi, kelib chiqishi, nasl-u nasabi, ota-onasi va ustozining bergen ta’lim tarbiyasini anglab olish mumkin. Koreyslar insonnning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his-tuyg‘ulari uning tashqi qiyofasi, jumladan, ko‘zlari, chehrasi, qaddi-qomati va suhbat jarayonida ifodalaydigan mimika va gavda harakatlarida to‘la aks etadi, deb hisoblab, ichki dunyosi qanchalik mukammal bo‘lsa, yurish-turishi ham shunchalik madaniyatli bo‘lishiga ishonadi.

«Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta‘sir o‘tkazadilar va ta‘sirlanadilar» [Husanov, G‘ulomov, 2009:8].

Murojaat madaniyati koreyslar kundalik hayotida eng ko‘p e’tibor qaratiladigan jihat bo‘lib, xushmuomalalikni talab qiladi. Murojaat etiketi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, muomala munosabatlarining avval boshi bo‘lgani uchun uning bajarilishining ham alohida qoidalari bor. Neytral munosabatlarda o‘zga shaxsni chaqirayotganda koreys tilidagi murojaat birliklariga «Ҳ», «Ӯ» va boshqa murojaat suffikslarini qo‘shib gapirganda insonlarning o‘zaro bir-biriga hurmat-ehtiromi, xayrixohlik izhori yaqqol seziladi.

To‘g‘ri tanlangan murojaat nomlari bir-biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kaliti bo‘lib, insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala munosabatlarining boshlanishini ta’minlab beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, koreys madaniyatida muloqot qilishning o‘ziga yarasha qoidalari mayjud bo‘lib, bunda har doim birinchi bo‘lib:

- yoshi kichiklar yoshi kattalarga;
- xodimlar rahbarlarga;
- xonaga kirgan inson u yerdagi barchaga umumiyl;
- lavozimi past inson yuqori lavozimdagilarga;
- jamoat joylarida esa II-shaxs olmoshlari yordamida;
- yoshi va xizmat pog‘onasi teng insonlar davrasida esa birinchi bo‘lib tarbiyalı inson avvalo salom berib hamsuhbatiga nisbatan murojaat birliklaridan foydalangan holda so‘z boshlashi lozim. O‘zaro tanish bo‘lmagan insonga yuzlanishdan avval uzr so‘rab, so‘ngra murojaat qilish lozim.

Aslida, murojaat qilish har xil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, shuningdek hamsuhbat bilan o‘zaro munosabatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Murojaat nomlari nafaqat hurmat belgisi, balki maqsadga erishish yo‘lida muhim vosita hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq barcha murojaatlar axloq me’yorlariga bo‘ysungandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Murojaat birliklari barcha tillarda mohiyatan bir xil maqsadni aks ettirsada, uni boshqa tilga ayni holatida ifodalash imkonsiz. Murojaat birliklari mohiyatida milliy xarakter, millatning o‘ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an’ana masalasi turganligi bois bir millatning murojaat birliklarini tahlil qilishda ushbu jihatlarni hisobga olmasdan turib, o‘rganish mumkin emas. Chunki murojaat birliklari millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Yer yuzi tabiatni naqadar rang-barang va xilma- xil bo‘lsa, unda yashovchi aholining etnik xususiyatlari ham shu qadar turli-tumandir. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta’sirida har bir millatning alohida bo‘rtib turgan o‘ziga xos xarakter xususiyatlari ifodalanadi. Turli millat vakillari o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro muomala jarayonida bu kabi jihatlarni inobatga olmaslik turli tushunmovchilik, kelishmovchilik va hatto to‘qnashuvlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, koreys jamiyati o‘zining uzoq yillik ierarxiysi va davlat boshqaruvidagi takrorlanmas tizimiga ega ekanligini hisobga olib aytishimiz mumkinki, bu jamiyatda murojaat birliklarining shunday tasnifi borki, ularni tilimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima etish imkonsiz.

Koreys tilida etnik holatidan kelib chiqib murojaat qilish bir necha turlarga bo‘linadi: rasmiy, ishonchli, intim va egasiz.

Insoniy munosabatlarda aytilayotgan so‘zlar faqat axloqiy me’yorlarga tayanadi. Bu esa qarindoshlar, sevishganlar, er-xotin, do‘stu – birodar, mansabdor shaxs va xodim o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llaniladigan murojaat birliklari turlicha bo‘lishini anglatadi. Murojaat mohiyatani ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat turi bo‘lib, ular og‘zaki yoki yozma ko‘rinishga ega. Quyida Koreya ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda faqat shu millatgagina tegishli bo‘lgan murojaat birliklarini tasniflarga ajratib o‘rganib chiqamiz.

Koreys sferasida rasmiy murojaatlarda jamoatga murojaat qilishda II-shaxs olmoshi «여러분» murojaat birligidan foydalaniladi. Bu holatda tarkib a’zolarining kasbi ham inobatga olinadi. Jamoat tarkibi ishchi xodimlardan iborat bo‘lsa «직원 여러분», talabalardan tarkib topgan bo‘lsa «학생 여러분», tibbiyot sohasi xodimlari jamoasiga murojaat qilishda esa «의사 여러분» murojaat birligi qo‘llaniladi. Koreya sanoati jadal rivojlanganligini inobatga olib, kasblarning xilma-xilligidan kelib chiqqan holda bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ahamiyatli jihat shundaki, «여러분» murojaat birligi bir vaqtning o‘zida tilimizdagи «do‘sstar», «azizlar», «birodarlar» singari undalmalar bilan ekvivalent bo‘la oladi.

Mehnat jamoasida rahbarga rasmiy murojaat etishda «사장님», agar rahbar ayol kishi bo‘lsa «사모님» murojaat birligidan foydalaniladi. Ayol rahbar uchun alohida murojaat birligining qo‘llanilishi kamyob holat bo‘lib, bu millat madaniyatida murojaat birliklarining o‘rni ahamiyatli ekanligini ko‘rsatuvchi yana bir jihatdir. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida har bir xodimni aytib chaqirish uchun alohida murojaat nomlari mavjud bo‘lib, bu koreys millatida murojaat

nomlarini alohida fan sifatida o‘rganishga sabab bo‘la oladi. Korxonaning bo‘lim boshliqlari va yetakchi mutaxassislariga egallab turgan lavozimidan kelib chiqib «부장님», «과장님», «이사님» va boshqa birliklar qo‘llaniladi. Shuningdek rasmiy murojaat doirasiga ta’lim tashkilatlari ham kirib, bu muassasalarda ta’lim beruvchi ustozga «교수님», «선생님» kabi undalmalarni qo‘llash joiz.

Rasmiy murojaatlardan davlat ahamiyatiga molik tadbirdorda ham foydalanilib, bunda kishining yoshiga qarab yoki barchaga umumiy murojaat qilinadi.

M: Yakka shaxsga nisbatan «민우 씨» «janob Min U», deb murojaat qilish mumkin.

Agar familiya ishlatilmasa, «janob direktor» «사장님», «direktor xonim» «사모님», deb murojat qilish maqsadga muvofiq.

Rasmiy munosabatda faqat sizlab gaplashiladi. Rahbarning qo‘l ostidagi barcha kishilar bilan bo‘lgan munosabatida ham, 7 yoshdan yuqori bo‘lgan maktab o‘quvchilardan tortib, talabalar bilan bo‘lgan munosabatda ham, notanish insonga murojaat qilganingizda ham sizlab murojaat qilinadi.

Ishonchli munosabatlar deb yaqin insonlar, qarindosh–urug‘ va tanishlarga qilinadigan munosablarga aytildi. Bunday munosabatlarda «Sen» deb faqat oilada yoki yaqin munosabatdagи insonlarga murojaat qilish mumkin. O‘zbek tilidagi «amaki», «hola», «tog‘a», «opoqi», «kelinoyi» va boshqa qarindoshlar o‘rtasida ishlatiladigan murojaat birliklari koreys tilida ham mavjud bo‘lib, ushbu birliklar orasida «kelinoyi» undalmasini tahlil qilib ko‘rsak. O‘zbek tilida aka, amaki, tog‘a va ularning o‘g‘il farzandlarining turmush o‘rtog‘i va mehnat joyidagi rahbarning turmush o‘rtog‘ini bir xilda «kelinoyi», deb chaqiriladi. Ko‘p holatlarda har bir joyning o‘zidan kelib chiqib, shevaga hamda urf-odatga asoslangan holda «kelinoyi» undalmasi «yanga», «biyi», «yanga mullo» shakllariga o‘zgarishi mumkin, biroq ularning mohiyati o‘zgarmaydi. Ammo koreys tilida yaqin qarindoshlik munosabatlarini anglatuvchi «kelinoyi» olmoshi bilan rahbarning turmush o‘toga qarata qo‘llaniladigan murojaat birligi hamdir. Koreys sferasida biz «사모님» murojaat birligidan foydalaniladi, deb aytib o‘tgan edik. «사모님» so‘zi shuningdek, korxona rahbarining turmush o‘rtog‘iga qarata qo‘llaniladigan murojaat birligi hamdir. Koreys sferasida biz «사모님» murojaat birligidan faqat ikki holatda: biri korxona rahbarining turmush o‘rtog‘iga qarata murojaat qilganimizda va ikkinchi holatda ayol rahbarga qarata murojaat qilganimizdagina foydalanishimiz mumkin. Yaqin qarindoshlik munosabatlarini anglatuvchi «kelinoyi» olmoshini esa koreys tilida boshqa birliklar orqali ifodalanadi. Bu koreys tili leksemasining yana bir o‘ziga xos jihatlardan biridir.

Intim murojaatlarda o‘zbek tilida turmush doirasida er-xotin munosabatlarida qo‘llaniladigan chiroqli, yoqimli, erkalash ma’nosidagi «Azizim», «Mehribonim», «Dadasi», «Onasi» kabi leksemalar koreys tilida biroz boshqacha bo‘lib, oilada birinchi farzand tug‘ulgunga qadar o‘zaro «자기» yoki «×× 씨» shaklida ifoda etiladi. Farzandi tug‘ilgandan so‘ng esa umumiy tarzda «여보»,

«당신», «아가 엄마», «애기 아빠», «오빠», «의름+의», «부인», «와이프» kabi etiket birliklaridan foydalaniladi va buning sababi so‘ralganda ko‘plab ayollar oilaning yoshi kata a’zolari oldida hijolat tortmaslik va farzandlarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik maqsadida mehr va o‘zaro hurmat ifodasini anglatuvchi neytral so‘zlardan foydalanish kerakligi bilan izohlashgan [<https://www.joongang.co.kr/article/1627099>]. Harakterdagи ayni shu jihat o‘zbek va koreys millatlaridagi madaniy o‘xshashlikning bir na’munasidir.

Koreys tilining yana bir murojaat turi sanalmish nomsiz murojaatlarda shaxsning kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo‘lib, biror noma’lum obyekt yoki subyektni aniqlash, u haqda muayyan ma’lumot olish uchun qo‘llaniladi. Bunday murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko‘rsatilmasa-da, u haqdagi ma’lumotlar va aytildigan fikrlar tushunarli bo‘ladi.

Bu murojaat shakliga misol qilib «저기요» birligini keltirishimiz mumkin. Bu tilimizdagи «hoy», «kechirasiz» kabi kabi undalmalar bilan mazmundosh sanalsa-da, mohiyatan qisman farq qiladi. Koreys tilida «저기요» murojaat birligini yoshi kichikka ham kattaga ham birdek qo‘llash mumkin, biroq o‘zbek tilida katta yoshdagilarga «kechirasiz», deb murojaat qilinsa, yoshi kichiklarga «hoy» shaklini ishlatish joiz.

Xulosa. Murojaat birliklari o‘zi yahlit bir olam. Uning ichiga kirib borgan sari jilolanib, go‘zalligini namoyon eta boshlaydi. U qaysi tilda bo‘lishidan qatiy nazar o‘zida millatning g‘ururi, xarakteri, o‘tmishi, turmush tarzi, etnik tarkibi, ahloq-odobini namoyish etadi. Ba’zan insonning birgina murojaati orqali butun boshli millatga baxo berish mumkin bo‘ladi. Koreys tili aynan murojaat birliklarining rang barangligi bilan boshqa tillardan tubdan farq qilib, har bir soha, jumladan har bir kasbga murojaat etuvchi undalma mavjud. Ba’zan koreys tilidagi murojaat nomlarini boshqa tilga tarjima qilishda qiyinchilikka dush kelish holatlari uchrab turadi. Bunda so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish emas, balki unga mos keladigan ekvivalent so‘zni tanlash kerak bo‘ladi. Koreys tilida murojaat nomlarini tushunish uchun koreyscha fikrlash, koreyslar turmush tarzidan boxabar bo‘lish, ular kabi xissiyotga berilish va ularning hayotida yashab ko‘rish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Ahmedova N. «O‘zbek tilida murojaat birliklari», II xalqaro ilmiy konfirentsiya. I-tom. Ufa.2019, 34-41b.
- 2.Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.-T.:Iqtisod – moliya.- 2009
- 3.Turdieva Kh. Comparison of Politeness in Persian and Uzbek speech // Journal of Word Art. Tashkent, 2019. - №4. – P. 59-66. (10.00.00; №31).
- <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297>
- 4.Turdieva H. Nutqiy etiket birliklarining ilmiy nazariy asoslari va printsiplari // Sharq mash’ali. Toshkent, 2019. - №3. - B. 54-68. (07.00.00; №9).

- 5.Usmanova Sh., Kalanova D. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari // Lingvist/ Ilmiy maqolalar to‘plami. III. – Toshkent: 2012. –B. 162-166.
- 6.박갑수. 국어호칭의 실상과 대책, 국어생활. 제 19 호. -서울: 국립국어연구원, 1989.
- 7.박정운. 한국어 호칭어 체계. – 서울: 사회언어학, 1997.
- 8.연세한국어사전. 언어정보개발연구원. 서울: 연세 대학교, 두산동아, 2006.-3050 쪽
- 9.이익섭. 사회언어학. - 서울: 미음사, 1994.
- 10.이명화. 외국인을 위한 한국어 호칭어와 지칭어 교육 방안연구. – 서울: 동국대학교 석사학위논문, 2010.